

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI



70230101- LINGVISTIKA (INGLIZ TILI) MUTAXASSISLIGI BO'YICHA
FANLARARO YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI
DASTURI

Bilim sohasi: 200000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi: 230000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi: 70230101 – Lingvistika (ingliz tili)

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2009-yil 22-maydagi 160-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risida NIZOM” (hozirga qadar mazkur Nizomga bir necha bor o‘zgartirishlar kiritilgan bo‘lib, 2018-yil 7-noyabrda 26-sonli buyrug‘iga binoan so‘nggi o‘zgarish bo‘lgan)ga asosan ishlab chiqildi.

Mutaxassis chiqaruvchi kafedra Ingliz tili kafedrasini bo‘lib, dastur Ingliz tili kafedrasining 27.12.2023-yildagi 5-yig‘ilishida muhokama qilingan hamda Chet tillari fakultetining 29.12.2023-yildagi 5-kengashida ma’qullangan. Universitet kengashining 30.01.2024-yildagi 6-sonli yig‘ilishida tasdiqlangan.

Tuzuvchilar: D.Mirzayeva - ingliz tili kafedrasini mudiri

Taqrizchilar: G‘.Xoshimov – ADChTI professori, filologiya fanlari doktori
S.Solijonov – ADChTI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Mazkur dastur 70230101 – lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi bitiruvchilarining ikki yil mobaynida ixtisoslik fanlarini o‘qib o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun o‘tkaziladigan Yakuniy Davlat Attestatsiyasi sinovlari bo‘yicha ishlab chiqilgan.

YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI o‘tkaziladigan fanlar tarkibi:

1. Kognitiv lingvistika
2. Lingvistik tahlil metodlari
3. Matn lingvistikasi
4. Chog‘ishtirma tilshunoslik
5. Ilmiy va kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan chet tili

“KOGNITIV LINGVISTIKA” fanining mazmuni

O‘quv fanining maqsadi – magistrantlarda kognitiv lingvistikaning metodologik prinsiplari, dolzarb muammolari va asosiy tushunchalari bo‘yicha mutaxassislik profiliga mos ilmiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va takomillashtirish hamda zamonaviy lingvistik yo‘nalishlari sohasida ilmiy tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirish. O‘quv fanining vazifasi deb kognitiv lingvistikaning asosiy muammolari bo‘yicha tayanch ilmiy bilimlarni; kognitiv lingvistikada foydalaniladigan zamonaviy tahlil metodlari vositasida lisoniy va bilim tuzilmalarning, til va madaniyatlararo muloqot, til va nutq o‘zaro munosabatini; zamonaviy lingvistik yo‘nalishlari sohasida ilmiy tadqiqot olib borishga o‘rgatish belgilandi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi **talablar** qo‘yiladi.

□ tilshunoslik tarixida ro‘y bergan paradigmalar siljishi, antropotsentrik paradigma xususiyatlari, zamonaviy lingvistik yo‘nalishlari (Kognitiv lingvistika, Qiyosiy lingvomadaniyatshunoslik, Lingvopragmatika) an‘anaviy tilshunoslikdagi fanlardan farqli jihatlari; zamonaviy lingvistika fanining nazariy va amaliy yutuqlari; zamonaviy lingvistik yo‘nalishlaridagi turli nazariy qarashlar va yetakchi konsepsiyalar to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;

□ magistrantlar kognitiv lingvistikaning terminologik apparati, qonuniyatlari va asosiy tushunchalari, asosiy tamoyillari va ularning xususiyatlari; konsept va uning turlari, freym nazariyasi va uning tahlili; bilim tuzilmalari, axborot, kategorizatsiya, konseptualizatsiya, kognitsiya, prototip, konseptual va lisoniy dunyo tasviri bo‘yicha mavzularni bilish va egallagan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llashni bilishi va ulardan foydalana olishi;

□ lisoniy material bilan ishlash, muayyan nazariy masalalarga oid fikrlarni bayon etishi, ayni fikrlarga nisbatan tanqidiy munosabatini shakllantirish va ifodalash; lisoniy birliklarni tahlil qilish metodlarini (kross-madaniy tahlil, konseptual tahlil, lingvopragmatik tahlil, freym tahlil, kognitiv xarita tuzish) bilish va ularni amaliyotda qo‘llash, til birliklari kognitiv tahlilini boshqa yondashuvlardan (struktural, generativ, semantik) farqli jihatlarni qiyosiy tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

1-mavzu. Paradigma ilmiy sistema sifatida Ilmiy paradigma tushunchasi. T. Kunning paradigmalar nazariyasi va uning fanga ta’siri. Tilshunoslik tarixidagi paradigmalar siljishi. Qiyosiy-tarixiy paradigma, uning rivojlanish tarixi va xususiyatlari hamda tilshunoslik faniga qo‘shgan xissasi. Strukturalizm paradigmasi, uning rivojlanish tarixi va xususiyatlari. Strukturalizm paradigmasining tilshunoslik fani rivojlanishida egallagan o‘rni. Antropotsentrik paradigma va uning xususiyatlari. Antropotsentrik paradigmaning zamonaviy tilshunoslikda egallagan o‘rni va xususiyatlari.

2-mavzu. Kognitiv lingvistika faniga kirish Kognitiv lingvistika to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Fanning shakllanishi va rivojlanishi tarixi. Kognitiv lingvistikaning fanlararo aloqalari. Kognitiv lingvistikaning asosiy nazariy tamoyillari. Kognitiv lingvistika fanining metodologik bazasi. Kognitiv lingvistika zamonaviy tilshunoslikning yetakchi yo'nalishi sifatida. Kognitiv lingvistika doirasida chet el va O'zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlar va ularning yutuqlari.

3-mavzu. Kognitiv lingvistika yo'nalishlari Kognitiv semantika va uning tadqiqot obyekti. Semantik freym tushunchasi. Ch.Fillmor konsepsiyasi. Freym strukturasi. Konseptual makon (domeyn) tushunchasi va uning turlari. Kognitiv stilistika. Kognitiv grammatika. Kognitiv semantika va uning tadqiqot obyekti. Kognitiv grammatika va uning tadqiqot obyekti. Kognitiv lingvistikadagi turli nazariyalar va yondashuvlar. Kognitiv stilistika va uning tadqiqot obyekti. Kognitiv uslub. Stilistik vositalarning kognitiv mohiyati.

4-mavzu. Bilim tuzilmalari tushunchasi Bilim tuzilmasi tushunchasi. Bilim tuzilmasiga turli yondashuvlar. Bilim tuzilmalari turlari va ularning xususiyatlari. Bilim tuzilmalarining tilda birliklarida aks etishi va verballashuv usullari. Bilim tuzilmalarining til birliklarida aks etishi. Bilim tuzilmalari turlari va shakllari. Bilim tuzilmalari tipologiyasi. Kognitiv model tushunchasi. Bilim tuzilmalari shakllari: geshtalt, sxema, ssenariy, skript nazariyalari va ularning xususiyatlari.

5-mavzu. Konsept – kognitiv lingvistikaning asosiy tushunchasi sifatida Konsept tushunchasi. Konsept – konseptual va tafakkur birligi sifatida. Konseptni tadqiq etishda lingvokognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar. Konsept va ma'no. Konsept va tushuncha. Kognitiv lingvistikada ma'no interpretatsiyasi. Konseptlar va ularni tasniflash prinsiplari. Konsept bilimlar tuzilmasi sifatida. Konsept strukturasi.

6-mavzu. Konsept turlari va konseptni tahlil qilish metodlari Konsept turlari. Universa konseptlar. Milliy-madaniy konseptlar. Individual konseptlar. Strukturaviy konseptlar. Bilim tuzilmalari ifodalash tamoyiliga ko'ra konsept turlari. Konseptning verballashuv usullari. Konseptni tahlil qilish yo'llari.

7-mavzu. Konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish masalalari Kognitsiya tushunchasi. Olamni kognitiv idrok etish masalasi. Konseptuallashtirish (ongda konseptlar hosil qilish) tushunchasi. Konseptual tuzilmalar va konseptual sistema tushunchalari. Kategoriya va kategoriyalashtirish tushunchasi. Kategoriyalashtirish kognitiv faoliyat sifatida. Kategoriyalashtirish va idellashgan kognitiv modellar. "Oilaviy mutanosiblik" konsepsiyasi. E.Roshning prototiplar nazariyasi. Konseptual va lisoniy dunyo tasviri tushunchalari va ularning o'zaro munosabatlari.

8-mavzu. Konseptual metafora va konseptual integratsiya nazariyalari Kognitiv metafora kategoriyalashtirishni amalga oshiruvchi kognitiv faoliyat sifatida. Dj.Lakoff va M.Djonsonning konsepsiyasi. Kognitiv metaforaning universal xarakteri. Kognitiv metafora tafakkur birligi sifatida. Kognitiv metaforani o'rganishda turli yondashuvlar. Kognitiv metaforaning tilda aks etilishi. Kognitiv metaforaning turlari. Strukturaviy metafora va uning xususiyatlari. Ontologik metafora. Konteyner metafora. O'zatuvchi metafora va uning xususiyatlari. Konseptual integratsiya nazariyasi. konseptual integratsiya nazariyasining shakllanishi. Konseptual integratsiya nazariyasini amalga oshirish mexanizmi. Blend tushunchasi. Input tushunchasi. Kross-domeyn tushunchasi.

9-mavzu. Axborotni til birliklarida taqsimlash tamoyillari Kognitiv lingvistikada konseptual axborot tushunchasi. Konseptual axborotning til birliklarida taqsimlanishi va ularni tadqiq etish Konseptual axborotning verballashuv usullari va ularning xususiyatlari. Mos kelish (relevantlik) tamoyili va uning xususiyatlari. Ikoniklik tamoyili va uning xususiyatlari. Ikoniklik tamoyili va uning turlari. Tildagi tejamkorlik va o'triqchalik tamoyili va ularning xususiyatlari. Til birliklarida taqsimlangan axborotni tahlil qilish va axborotni yuzaga chiqarish usullari.

10-mavzu. Konseptual tahlil metodlari Kognitiv modellashtirish metodi. Kognitiv xarita tuzish texnikasi. Konseptual tahlil metodi. Konseptual metaforik tahlil metodi va uning texnikasi. Til birliklarining freym tahlili va uni ko‘llash texnikasi.

“Kognitiv lingvistika” fanidan savollar

1. Paradigm as a scientific system
2. The paradigm theory of T.Kuhn
3. Introduction to cognitive linguistics
4. Stages of development of cognitive linguistics
5. Main theoretical principles of cognitive linguistics
6. Main trends of cognitive linguistics
7. Cognitive semantics and its object of study.
8. The notion of cognitive frame
9. Cognitive stylistics and its object of study.
10. Cognitive styles and stylistic devices
11. The structure of cognition. Different approaches to the structure of cognition
12. The notion of cognitive model
13. The theory of script
14. Main categories of cognitive linguistics
15. Branches of cognitive linguistics
16. Concept – as the main category of cognitive linguistics
17. The notion and structure of concept
18. Types of concepts and their analyzing methods
19. Universal, national-cultural and individual concepts
20. Linguacognitive and linguaculturological approaches to the study of concept
21. Types of verbalizations of concept
22. Conceptualization and categorization
23. Category and categorization
24. The theories of conceptual metaphor and conceptual integration
25. The problem of “language – culture” in linguistics
26. The methods of conceptual analysis
27. Methods of cross-cultural and semantic analysis
28. The role of language in the interpretation of the world
29. Cognitive metaphor as a mental and cultural model
30. Prototype theory of Rosch

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Andrea Tyler., Cognitive linguistics and second language learning. – Routledge, 2012.
2. Evans V., Green M. Cognitive Linguistics. An Introduction. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006
3. Friedrich Ungerer., Hans-Jörg Schmid. An Introduction to Cognitive Linguistics – Pearson Education Limited, 2006.
4. Safarov Sh. C. Kognitiv tilshunoslik. – Samarqand: Sangzor nashriyoti, 2006. – 92 b.
5. Махкамova G.T. Концепция формирования межкультурной компетенции студентов факультетов английского языка: Монография. – Tashkent: Fan, 2010. – 208 s.
6. Краткий словарь когнитивных терминов//Е. С. Кубрякова, В. З. Демьянков, Ю. Г. Панкрац, Л. Г. Лузина Под общ. ред. Е. С. Кубряковой, – М.: Филологический факультет МГУ им. М. В. Ломоносова, 1996

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 29 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 47 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 485 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
5. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
17. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O‘zbekiston, 2017. – 46 b.

Ingliz tili

1. Ashurova D.U., Galieva M.R. Stylistics of Literary Text. -Tashkent. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2013.
2. Болдырев Н. Н. Когнитивная семантика. – Тамбов: Изд-во ТГУ им.Г.Р. Державина, 2001.
3. Грайс Г.П. Логика и речевое общение // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16. Лингвистическая прагматика. –М.: Прогресс, 1985.
4. Кубрякова Е.С. Типы языковых значений. Семантика производного слова. М., Наука, 1981
5. Дейк Т. А. ван. Язык. Познание. Коммуникация. Пер. с англ./Под ред. В.И. Герасимова. – М.: Прогресс, 1989.
6. Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода. www.infolex.ru
7. Карасик В. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. –М.: Гнозис, 2004

«LINGVISTIK TAHLIL METODLARI»

fanining mazmuni

Magistrantlarga lingvistik tahlil metodlari hamda ularga oid zarur termin va tushunchalar, shuningdek, mazkur metodlarning yaratilishi, ularning taraqqiyot bosqichlari va qo‘llanish doirasini chuqur tushuntirish va ilmiy tushunchalarni shakllantirish.

Fan bo‘yicha magistrantlarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan **talablar** quyidagicha:

- tilshunoslik fanining dastlabki bosqichlarida tahlil metodlarining yaratilishi, bu metodlar yaratilishiga katta hissa qo‘shgan olimlarning lingvistik ta’limotlari va lingvistik tahlil metodlarining turlari, shuningdek, ushbu sohada erishilgan yutuqlar to‘g‘risida yuqori saviyadagi bilimga ega bo‘lishlari kerak;

- lingvistik tahlil metodlarining rivojlanish dinamikasini chuqur tushunish va tahlil qilish, ularni qiyoslab o‘rganish hamda zamonaviy tilshunoslikda qo‘llanilayotgan metodlar to‘g‘risida fikr yuritish olish malakasiga ega bo‘lishlari lozim;

- tarixiy-traditsion va zamonaviy metodlarga tayangan holda, fanda shakllangan ilmiy metodlarni til faktlarini tahlil qilishda to‘g‘ri qo‘llash, shu mavzulardagi suhbat, munozaralarda o‘z nuqtai nazarini bildirgan holda faol ishtirok etish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

Фан таркибига куйидаги мавзулар киради:

1-mavzu. Tilshunoslikda tadqiqot metodlari haqida tushuncha. Metod, metodika va metodologiya tushunchalari tavsifi. Lingvistik tahlil metodlari haqida umumiy tushuncha. Ilmiy

tahlil vositalari: kuzatish, eksperiment, induksiya, deduksiya, analiz, sintez. Terminologik apparat: metod, metodologiya, metodika. Ilmiy tadqiqot metodlari tasnifi. Tadqiqot metodlarining xususiyatlari. Til va uning taraqqiyotini o'rganishda tahlil metodlarining o'rni. Turli til sathlariga xos umumiy va xususiy metodlar. Tahlil metodlari turli lingvistik maktablar (qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, psixologizm, sotsiolingvistika, strukturalizm)ning mahsuli sifatida.

2-mavzu. Qiyosiy-tarixiy metodning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik metodining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari. Sanskrit tilini boshqa tillar bilan qiyoslab o'rganishda ushbu metodning tutgan o'rni. O'tmishda qardosh bo'lgan tillarning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish va umumlashtirishda qiyosiy-tarixiy metoddan foydalanish usullari. Qiyosiy-tarixiy metodning asoschilari va eng yirik namoyondalari Rasmus Rask (1791-1867), Frans Bopp (1791-1867), Yakob Grimm (1787-1863), A.X. Vostokov (1781-1864), Vilgelm fon Gumboldt (1767-1835) va boshqalar. Qardosh tillardagi faktlarni bir-biriga sistemali ravishda qiyoslash, bir necha tillar uchun umumiy bo'lgan til elementlarini, so'z va uning shakllarini qayta tiklash (rekonstruksiya qilish)da qiyosiy-tarixiy metodning ahamiyati.

3-mavzu. Tipologik va chog'ishtirma metodlarning yaratilishi va ularning qo'llanish prinsiplari. Lingvistik tipologiyaning asosiy vazifalari. Tipologik metod haqida tushuncha. Tipologik metodning yaratilishi. Lingvistikada chog'ishtirma metod. Chog'ishtirma metodning universalligi. Ikki yoki undan ortiq tillarning strukturalizmi va tarkibiy elementlarining bir-biriga o'xshash va noo'xshash tomonlarini chog'ishtirma metod orqali o'rganish. Chog'ishtirishma metodning shakllanish bosqichlari va taraqqiyoti. Chog'ishtirma metod vakillari haqida ma'lumot. Chog'ishtirma metodning xorijiy tillarni o'rganishda samaradorligi. Ushbu metodning tarjima nazariyasi va amaliyotida qo'llanilishi.

4-mavzu. Ferdinand de Sossyur lingvistik nazariyasi va struktural metodlarning yaratilishi. Struktural metodlarning yuzaga kelishida Ferdinand de Sossyur g'oyalarining ahamiyati. Tilning ichki qurilishini, til sistemasini tashkil etgan elementlar orasidagi munosabatlarni, oppozitsiyalarini o'rganishda struktural metodning o'rni. Struktural oqimning paydo bo'lishi, tilni ilmiy o'rganishga xizmat qiladigan yangi struktural tahlil metodlarining vujudga kelishi. Praga strukturalizm maktabi (V.Matezius, Trnka, R.O. Yakobson, N.S. Trubetskoy va boshq.). Amerika strukturalizm maktabi (F.Bopp, E.Sepir, L.Blumfeld, Z.Xerris, N.Chomskiy va boshq.) Amerika strukturalizm maktabi negizida yaratilgan distributiv, bevosita ishtirokchilarga ajratish va transformatsion tahlil metodlari. Kopengagen strukturalizmi va glossematika nazariyasi (L.Yelmslev, V.Brendal, G.Uldall, X.Serensen, X.Pedersen va boshq.), London strukturalizm maktabi.

5-mavzu. Tilshunoslikda deskriptiv, bevosita tashkil etuvchilar va transformatsion metodlarning yaratilishi va qo'llanishi. Deskriptiv lingvistika. Deskriptiv metodning yaratilish tarixi. Deskriptiv grammatika. Tilshunoslikda transformatsiya tushunchasi. Transformatsion grammatika nazariyasi. Transformatsion tahlil metodining ta'rifi va tavsifi. Transformatsion tahlil metodining qo'llanilish bosqichlari. Bevosita ishtirokchilarga ajratish metodi til birliklari o'rtasidagi munosabatlarni, ularning tarkibiy qismlarini o'rganuvchi tahlil usuli sifatida. Bu metod vakillari haqida ma'lumot. Deskriptiv, bevosita tashkil etuvchilar va transformatsion metodlarning kamchiliklari.

6-mavzu. XX-XXI asrlar tilshunosligining asosiy yo'nalishlari va 4 zamonaviy tahlil metodlari. Fan taraqqiyoti jarayonida yangidan-yangi metodlarning yuzaga kelishi va ularning amaliyotda qo'llanilishi. Zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo'nalishlari va zamonaviy tahlil metodlari: sinergetik va kognitiv konseptual tahlil metodlari. German Xaken sinergetik metodning asoschisi sifatida. Sinergetik metodning prinsiplari. Kognitiv tahlil prinsiplari: fanlararolik, antropotsentriklik, ko'psathlilik, struktur-funksional butunlik. Psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, pragmalolingvistika yo'nalishlaridagi tahlil metodlari.

7-mavzu. Til sathlari bo'yicha metodlarning qo'llanilishi. Til sathlari va lingvistik tahlil metodlari. Tilni fonologik darajada tahlil qilish metodlari: oppozitsion va distributiv metodlar. Tilni leksik semantik darajada tahlil qilish metodlari: komponent tahlil metodi,

semantik maydon metodi, leksik-semantik guruhlash metodi. Tilni morfem va soʻz yasash darajada tahlil qilish metodlari: morfem tahlil, soʻz yasalishi tahlili. Tilni morfologik darajada tahlil qilish metodlari. Tilni gap darajasida tahlil qilish metodlari. Uslubiy tahlil metodlari: V. Mateziusning gapni aktual boʻlaklarga ajratish nazariyasi.

8-mavzu. Matn tahlili metodlari. Matn tahlili birliklari. Matn tahlili metodlarining maqsadi. Matn tahlili metodlarining tasnifi. Intent-tahlil. Kontent-tahlil. Fonosemantik tahlil. Diskurs-tahlil. Narrativ tahlil. Matnni ekspert baholash. Grafematik tahlil. Morfologik tahlil. Sintaktik tahlil. Semantik tahlil.

9-mavzu. Tilshunoslikda eksperimental va statistik metodlarning oʻrni. Eksperiment tushunchasi. Eksperimentning olgʻa surilgan taxminlarning haqiqiyligini, maqsadga yoʻnaltirilganligini tekshirish yoki obyektiv dunyoning qonunlarini aniqlashdagi oʻrni. Eksperiment oʻtkazishdan oldin amalga oshiriladigan tadbirlar. Tajriba-sinov ishlarining qoʻyilishi va bosqichlari. Statistik tahlil nutqda elementlarning qoʻllanilishini koʻrsatish usuli sifatida. Tilshunoslikda statistik tahlil metodlarining maqomi. Lingvistik tahlilda statistik metodlarning qoʻllanilishi.

“Lingvistik tahlil metodlari” fanidan savollar

1. Notions of Research Methods and Methodology in Linguistics
2. The Importance of Linguistic Methods in Studying Language Development
3. Historical-Comparative Linguistics
4. R.Rusk, F.Bopp, J.Grimm, A.Vostokov and other founders of the historical-comparative method
5. Descriptive method. Descriptive Linguistics in the 20th Century
6. Contrastive Method in Linguistics
7. Linguistic Theory of F.de Saussure and the Origin of Structural Methods
8. Distributive and transformational methods
9. Methods of opposition, stylistic, component, immediate constituent analysis
10. Trends of Modern Linguistics and Modern Analytic Methods
11. Diachronic and synchronic analytical methods in linguistics
12. M.Koshgariy, Comparative linguistics
13. Origin of the historical-comparative method
14. Using scientific methods in modern linguistic schools
15. Linguistic analysis in structural schools
16. Historical linguistic schools
17. Modern linguistic schools
18. Linguistic methods in the period of antiquity
19. Naturalism and psychologism (psycholinguistics) in historical- comparative linguistics
20. Young grammarians' school.
21. Methods created in the school of Glossematics
22. Prague linguistic school.
23. Linguistic school of Humboldt
24. The Dynamics of methods of linguistic analysis
25. Conceptions and theories of W. Fon Humboldt and F. de Saussure
26. Conceptions and theories of F. Bopp, R. Jakobson, L. Bloomfield and N. Chomsky
27. American structuralism and descriptive linguistics
28. Copenhagen Structural School
29. London Structural School
30. Other methods of linguistic analysis

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Umarxo‘jayev M.E. Umumiy tilshunoslik. – Andijon, 2007.
2. Sodiqov A., Xolmurodov A. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2014.
3. Кондрашов Н.А. История лингвистических учений. – М., 2009.
4. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – T., 2010.

Qo‘shimcha adabiyotlar

5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 29 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2017.
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 485 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
9. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
10. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 46 b.
11. Попова З.Д., Стернин И.А. Общее языкознание. – М., 2007.
12. Шарафутдинова Н.С. Теория и история лингвистической науки. – М., 2006
13. Махкамova Г. Проектирование учебно-методических комплексов в магистратуре. – T., 2012.
14. Makhkamova G. Projecting educational-methodological complexes in MA departments. – T., 2018.
15. Мечковская Н.Б. Общее языкознание. Структурная и социальная типология языков. – М., 2009.

Internet saytlari

16. www.tdpil.uz
17. www.pedagog.uz
18. www.edu.uz
19. www.tdpu.INTRANET.ped

“MATN LINGVISTIKASI”

fanining mazmuni

Fanning maqsadi – magistrantlarda matn lingvistikasi metodologik prinsiplari, tamoyillari, bazaviy muammolari va asosiy tushunchalari bo‘yicha mutaxassislik profiliga mos ilmiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va takomillashtirish, hamda matn lingvistikai sohasida ilmiy tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Fanning vazifasi – magistrantlarga muloqotning turli jabhalarida va holatlarida tildan uslubiy jihatdan adekvat foydalanish, matn lingvistikasi asosiy muammolari bo‘yicha tayanch ilmiy bilimlarni shakllantirish, hamda matn lingvistikasi sohasida ilmiy tadqiqot olib borishga o‘rgatish. Matn lingvistikasida foydalaniladigan an‘anaviy va zamonaviy tahlil metodlar vositasida matnda lisoniy va madaniy tuzilmalarning o‘zaro munosabatini, matnda turli xil bilimlar tuzilmalari va axborotning aks ettirilishi yo‘llarini o‘rganishga qaratilgan kognitiv metodlarni amalda qo‘llay olishni o‘rgatish, hamda badiiy matn asosida yotgan konseptual ahamiyatga ega axborotni, muallif intensiyalarini (maqsad) tadqiqot asosida ochib berish.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan **talablar** qo'yiladi. Magistrant:

□ matn lingvistikasi fanining nazariy va amaliy yutuqlari; undagi turli nazariy qarashlar va yetakchi konsepsiyalar; tadqiqotlarda ilmiylik va manbalarga asoslanib fikr yuritish talablari; matn lingvistikasining metodologik prinsiplar va tamoyillar, matn nazariyasiga turli yondashuvlarni to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;

□ o'rganilayotgan fanlarning terminologik apparati, qonuniyatlari va asosiy tushunchalarini; matn lingvistikasining asosiy yo'nalishlari va ularning xususiyatlarini; matn kategoriyalari: informativlik, modallik kategoriyalari, matn yaxlitligi va tugallanganligi kategoriyalari, matnda o'rin-payt kategoriyalarini; matn turlari va ularning xususiyatlarini; badiiy matn va uning asosiy kategoriyalari bilishi va ulardan foydalana olishi;

□ matnni tahlil qilish metodlarini (lingvistik sharhlash, superlinear tahlil metodi, semantik, stilistik, konseptual tahlil, inferensiya metodi, matn tahlilining statistik metodlari) bilish va ularni matn tahlili jarayonida qo'llash; matnni nazariy-pragmatik, lingvokulturologik, stilistik jihatlarini tahlil qilish; egallagan bilimlarni o'z ilmiy tadqiqot amaliyotida qo'llash ko'nikmalari ega bo'lishi kerak.

1-mavzu. Matn lingvistikasi faniga kirish Matn lingvistikasi to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Fanning shakllanishi va rivojlanish tarixi. Matn lingvistikasining boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi. Matn tushunchasi. Matnning asosiy xususiyatlari. Matnga turli yondashuvlar va matn lingvistikasining yetakchi konsepsiyalari. Matnning umumiy nazariyasi.

2-mavzu. Matn lingvistikasining turli yo'nalishlari Matnning umumiy nazariyasi yo'nalishi. Matn grammatikasi va uning tadqiqot obyektlari va vazifalari. Matn semantikasi va uning tadqiqot muammolari. Matn stilistikasi. Matn stilistikasining asosiy muammolari. Kognitiv uslub. Stilistik vositalarning konseptual ahamiyati. Kompozitsion struktura. Muallifning idiositili tushunchasi.

3-mavzu. Matn tipologiyasi Matn tipologiyasiga turli yondashuvlar. Matn tipologiyasining kriteriyalari. Matnga funksional-stilistik yondashuv. Matn turlari va janrlari. Matn geterogenligi.

4-mavzu. Matn va uning asosiy kategoriyalari Matn kategoriyalari hakida tushuncha. Matn kategoriyalarining klassifikatsiyasi. Matn kategoriyalari: modallik kategoriyalari, matn yaxlitligi va tugallanganligi kategoriyalari, matnda o'rin-payt kategoriyalarini. Informativlik kategoriyasi va uning turlari.

5-mavzu. Badiiy matn va uning asosiy kategoriyalari Emotivlik kategoriyasi va uning matnda ifodalanish yo'llari. Obrazlilik kategoriyasi va uning matnda ifodalanish yo'llari. Implitsitlik kategoriyasi va uning matnda ifodalanish yo'llari. Intertekstuallik kategoriyasi va uning matnda ifodalanish yo'llari. Pretsedent matn tushunchasi. Intertekst tushunchasi. Intertekstuallikni matnda ifodalovchi til birliklari va stilistik vositalar: allyuziya, antonomaziya, sitata, epigraf. Allyuziya turlari.

6-mavzu. Matn lingvistikasi va kommunikativ tilshunoslik Matnning kommunikativ mohiyati. Adresat va adresant faktorlari. Matn muloqotning asosiy va eng murakkab birligi sifatida. Kommunikativ maqsad va intensiyalari. Matnni qabul qilish va interpretatsiyasi. Diskurs tushunchasi. Tekstual kommunikatsiyasi nigohida G.Graysning kommunikativ qonunlari.

7-mavzu. Matn lingvistikasi lingvopragmatik jihatlari Matn pragmatikasi. Matnga pragmatik yondashuv. Pragmatik intensiya tushunchasi. Pragmatik intensiya turlari. Badiiy matnda pragmatik vazifalar turlari: "diqqatni jalb etish" vazifasi, "qiziqishni uyg'atish" vazifasi, "emotsional ta'sir ko'rsatish" vazifasi, "bilimlar tuzilmasini aktuallashtirish" vazifasi, "konseptual dunyoqarashni aks ettirish" vazifasi. Matn ta'sir va tushunishning pragmatik effektivligi.

8-mavzu. Matn lingvistikasining kognitiv aspekti Tayanch tushunchalar: bilimlar tuzilmalari, konseptualizatsiya, konseptual tizimlar, kognitiv model, kategoriyalashtirish, freym, konsept, konseptual va lisoniy dunyo tasviri tushunchalari. Matnda axborotni taqsimlash kognitiv prinsiplari. “Axborotni ilgari surish” kognitiv prinsipi va uning turlari. Matnning konseptual ahamiyati.

9-mavzu. Matn lingvistikasining lingvomadaniy aspekti Lingvokulturema, madaniy konsept, madaniy konnotatsiya, madaniy semalar, milliy dunyo tasviri tushunchalari. Madaniy konsept tushunchasi va uning badiiy matndagi konseptual ahamiyati. Sarlavhaning matnning konseptual dunyo tasvirini namoyon etishdagi ahamiyati. Madaniy konseptlarning matnda verballashuvi.

10-mavzu. Matn tahlili metodlari Lingvistik sharxlash (kontekstual ma’nolar tahlili, denotativ va konnotativ ma’nolar birikishi tahlili, matn birliklarini, ularning lug‘atdagi ma’nolari bilan solishtirish). Superlinear tahlil metodi (matnda implitsit ma’lumot signallarini aniqlash). Stilistik eksperiment metodi (sinonimlar tanlash, matnni toraytirish va kengaytirish, perifrast, gapda kompressiyadan foydalanish, matnda aranjirovkaning turli ko‘rinishlari). Konseptual tahlil (odam kognitsiyasining yuzaki til tuzilmalari bilan aloqasini o‘rganishni nazarda tutadi). Inferensiya metodi (semantik konseptualizatsiya jarayonida xulosaviy ma’nolarni olish). Matn tahlilining statistik metodlari. Matnda freym tahlili. Matnda kross-madaniy tahlil.

“Matn lingvistikasi” fanidan savollar

1. Introduction to Text Linguistics
2. History of the Development of Text Linguistics
3. Different Approaches to Text
4. Different Trends of Text Linguistics
5. Text Grammar
6. Text Semantics
7. Stylistics of Text
8. Text Typology: Criteria of Typology of Text
9. Types and Genres of Text
10. Text and its Main Categories
11. Category of Informativity
12. Main Categories of Fiction
13. Text Linguistics and Communication Theory
14. The Notion of Discourse.
15. G.Grice’s Maxims of Communication
16. Linguopragmatic Properties of Text
17. Cognitive Aspects of Text Linguistics
18. Linguocultural Aspect of Text Linguistics
19. Methods of Textual Analysis
20. Main notions of Text Linguistics
